



1913-yil aprel oyidan chiqib boshlagan

Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2026-yil 18-mart, chorshanba,
24 (24.204)-son

O'zbek xalq
maqoli

Bog'
jamoli -
bog'bondan



www.zarnews.uz



@zarnews_uz



https://twitter.com/zarnews_uz



info@zarnews.uz

IMOM BUXORIY MAJMUASI –

xalqimizning boy ma'naviy
merosi va bunyodkorlik
salohiyati timsoli

Samarqand shahridan chiqib, Dahbed qo'rg'oni orqali Payariq tumaniga kiraverar ekansiz uzoqdan to'rt ulkan minora va moviy gumbazlarga ko'zingiz tushadi. Keng va ravon yo'lda yeldek uchib borayotgan mashina manzilga yaqinlashgani sari ko'kka bo'y cho'zib turgan minora va gumbazlar quyosh nurida yal-yal tovlanadi. Yuragingiz hapqiradi, nigohingiz intiq kelayotganingiz – Imom Buxoriy majmuasidan bir laha nari ketmaydi. Nahotki bu o'sha ziyoratgoh bo'lsa, deysiz beixtiyor avvalgi xotiralarni yodga olib. Ilk bor kelayotgan bo'lsangiz majmuaning oppoq nurdek yaltirab, atrofini yanada charog'on qilib turganini ko'rib, hayratingiz oshadi. Ha, bugun Payariqning Xo'ja Ismoil mahallasida joylashgan ulug' muhaddis bobomiz – Imom Buxoriy hazratlari nomi bilan ataladigan muqaddas ziyoratgoh ana shunday qiyofaga kirgan.

BUYUK MUHADDIS MAQOMIGA MUNOSIB MASKAN

Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan mazkur majmua buyuk muhaddis bobomizning islom olamida tutgan yuksak mavqei, ulkan salohiyatiga munosib tarzda qaytadan bunyod etildi.

2019-yilda boshlangan qurilish-bunyodkorlik ishlari davomida bu yerda ulkan maqbara, 10 ming kishilik masjid va ma'muriyat binosi, muzey, kirish va chiqish ayvonlari qurildi. Ziyoratgohning to'rt burchagidagi 75 metrlik minoralar unga mahobat bag'ishlab turibdi.

– Nazarimda, muqaddas qadamjodan taralayotgan nur endilikda bu yerda qad rostlagan mahobatli binolarning ko'rkam qiyofasida ham aks etib, nafaqat yurtimiz, balki dunyo musulmonlarini ham o'ziga choralayotganday go'yo, – deydi "Nuroniylar" jamg'armasi viloyat bo'limi raisi, mehnat faxriysi Shuhrat Negmatov. – Muhaddislar sultoni deb ulug'lanadigan Imom Buxoriy bobomizning Islom olamida qanday yuksak maqom va mavqega ega ekanliklarini yaxshi bilamiz. Butun dunyo musulmonlari bu zot mangu orom topgan maskanni ziyorat qilishni orzu qilishadi, buni yuksak sharafla deb bilishadi. Lekin shu paytgacha ziyoratgoh bunga to'la imkon bermas, uning atrofida ham shunga yarasha sharoit va imkoniyatlar, sayyohlar uchun qulayliklar yo'q edi. Ta'bir joiz bo'lsa, majmua buyuk

sifatli va xalqaro talablar darajasida olib borilishini nazorat qildilar, jarayonda zarur tavsiyalar berildi. Majmua tarkibida innovatsion muzey tashkil etish g'oyasi ham ana shunday tashriflar davomida berilganini yaxshi bilamiz. Mu-

taxassislarning qayd etishicha, majmua avval bir kunda ko'pi bilan 12 ming ziyoratchini qabul qilish imkoniyatiga ega bo'lgan. Endi esa kuniga 65 ming nafargacha mehmonga xalqaro standartlarga mos xizmat ko'rsatish imkoniyati yaratilgan. Ilgari Imom Buxoriy hazratlarining qabri maqbara ostidagi kichik bir xonada bo'lib, bu joyga besh-olti kishigina sig'ishi mumkin edi va ko'p hollarda nuzufli delegatsiyalar tashrifi chog'ida bu holat noqulayliklar keltirib chiqarardi. Bugun esa maqbara ostida joylashgan qabr atrofida yuzlab mehmonlar tilovat qilishlari mumkin. Xuddi shunday ulkan masjidda bir vaqtning o'zida 10 ming kishi namoz o'qishi mumkin. Bu ayniqsa, hayit bayramlarida yurtdoshlarimiz va xorijdan keladigan ziyoratchilar uchun juda katta imkoniyat yaratadi.

Bugun Samarqandda necha asrlardan buyon o'z ko'rku mahobatini yo'qotmay kelayotgan qadimiy obidalarining yaratilish tarixi bilan qiziqsak, ular bir necha yillar davomida qurilgani haqida ma'lumotlar olamiz. Shu nuqtai nazardan, qariyb 8 yilda butunlay yangidan qurilgan Imom Buxoriy majmuasi ham ana shu ulug'vor obidalarimiz qatorida xalqimizning ulkan bunyodkorlik salohiyatining ifodasi, bir necha asrlar kelgusi avlodlarga xizmat qilishiga ishonamiz.

MAHALLA YANGILANDI

Qurilish-bunyodkorlik ishlari davomida majmua atrofida uch va to'rt yuzdual 20 dan ortiq zamonaviy mehmonxona, milliy va dunyo xalqlari taomlarini tayyorlovchi 10 ga yaqin restoran va oshxonalar, 1800 dan ortiq transport vositasini saqlashga mo'ljallangan 4 ta avtoturargoh, 40 ga yaqin elektromobillarni quvvatlash nuqtalari, 100

Muborak Ramazon hayiti arafasida foydalanishga topshirilishi kutilayotgan muqaddas maskan davlatimiz rahbari qayd etganidek, faqat ziyorat emas, ilm-ma'rifat, tarbiya va ibrat maskani bo'ladi. Imom Buxoriy hazratlarining buyuk izlanishlari, bilimi hamda kamoloti ziyoratchilar, ayniqsa, yoshlar uchun ibrat vazifasini o'taydi. Eng muhimi, majmua xalqimizning boy ma'naviy merosi va bunyodkorlik salohiyatini yorqin namoyon etadi.

G'olib HASANOV,
Alisher ISROILOV (surat).

ga yaqin savdo va servis shoxobchalari tashkil etildi. Faqatgina bu emas, ziyoratgoh joylashgan Xo'ja Ismoil mahallasi infratuzilmasi yangilanib, aholi turarjoylari, ijtimoiy soha obyektlari qayta qurildi, rekonstruksiya qilindi va hudud ko'rkam shaharcha ko'rinishini oldi.

– Avvalo, shunday muqaddas joyda yashashimiz bizning baxtimiz, 8 ming nafardan ortiq xalqimiz buning uchun shukrona aytishdan charchamaydi, – deydi Xo'ja Ismoil mahalla fuqarolar yig'ini raisi Jamol Narziyev.

– Keyingi yillarda majmua va uning atrofida qurilish-bunyodkorlik ishlari olib borilishi bilan birga mahallamiz qiyofasi ham tubdan o'zgardi. Hududdagi besh qishloqda kommunikatsiya tizimi to'liq yangilandi. Yangi yo'l va ko'priklar qurildi, jami 48 kilometr yo'lga asfalt yotqizildi. Namunaviy loyiha asosida qurilgan hovlilar va ko'p qavatli uylardan tashqari 1200 dan ortiq aholi xonadonlarida



ta'mirlash, rekonstruksiya ishlari olib borildi. Barcha xonadonlar markazlashgan ichimlik suv va oqova tizimiga ulandi, tabiiy gaz, internet tarmog'i kirib bormagan xonadon qolmadi hisob. E'tibor bergan bo'lsangiz, endi mahallamizda simyog'ochlar yo'q, elektr tarmog'i ham yer ostidan o'tkazildi. Umuman, hammasi zamon talablariga mos, shahardagidek sharoit yaratildi. Ayni paytda mahallamizda 150 dan ortiq tadbirkorlik subyekti faoliyat ko'rsatib turgandi, endilikda ularning safi yana ham kengayishi kutilmoqda. Birgina mehmonxona xo'jaligini oladigan bo'lsak, hozir 22 nafar mahalladoshimiz o'z xonadonida mehmon uyi tashkil etgan. Savdo va xizmat ko'rsatish shoxobchalari tashkil etish orqali ziyoratchilarga xizmat ko'rsatish va shu faoliyat ortidan daromad qilishni rejalashtirgan kishilar ham anchagina. Ularga kredit yoki subsiyada olishda yordam beraymiz. Yaqinda ochiladigan majmuaga xizmat ko'rsatuvchi direksiya tashkil etildi va unda 100 nafardan ortiq ishchi mehnat qilar ekan. Shuningdek, mehmonxonalar ishga tushishi bilan 400 kishining bandligi ta'minlanadi. Albatta, bu ish o'rinlariga birinchi navbatda mahalladoshlarimiz qabul qilinishi ko'zda tutilgan. Ana shu omillar hisobiga bu yil mahallamiz ishsizlik va kambag'allikdan xoli hududga aylanadi.

Ayni paytda mahallada 18 ta ko'p qavatli uy, ko'plab savdo va servis shoxobchalari bunyod etilmoqda. Shu kunlarda Samarqand shahridan Imom Buxoriy majmuasiga elektrobust qatnovi yo'lga qo'yildi. Bu nafaqat ziyoratchilar, balki mahalladan Samarqand shahriga borib ishlovchilar va tahsil olayotgan talabalar uchun juda katta qulaylik bo'ldi.



UMUMXALQ HASHARIDA

to'rt yuzga yaqin
xonadon ta'mirlandi

13-14-mart kunlari mamlakatimizda "Yurt obodligi, avvalo, mahalladan boshlanadi!" shiori ostida o'tkazilgan umumxalq hashari Samarqandda ham uyushqoqlik bilan tashkil etildi.

Mahallalar, aholi turarjoylari, bog' va xiyobonlar, qabriston va ziyoratgohlarda obodonlashtirish ishlari amalga oshirilib, daraxt va gul ko'chatlari ekildi. Shuningdek, mahallalar infratuzilmasini yaxshilash maqsadida ko'chalar asfalt qilindi, ichki yo'llar ta'mirlanib, qumshag'al to'shaldi. Ehtiyojmand oilalar, yolg'iz yashovchilar va yoshi ulug' insonlarning xonadonlarida mahalla ahli tomonidan hashar uyushtirilib, hovlilar, uy-joylar tartibga keltirildi.

O'zbekiston mahallalari uyushmasi viloyat boshqarmasi mas'ul xodimi Alovuddin Lapasovning ta'kidlashicha, viloyatdagi 1063 mahallada 3518 gektar maydon obodonlashtirilib, 1367 tonadan ortiq maishiy va qurilish chiqindilari chiqarildi. 1300 kilometr ariq va lotoklar tozalandi, 1579 qabriston, 257 ziyoratgoh tartibga keltirildi va "Yashil makon" loyihasi doirasida 850 mingdan ziyod ko'chat ekildi. Shuningdek, ijtimoiy ko'makka muhtoj 400 ga yaqin aholi xonadoni ta'mirlandi, 5315 nafar ehtiyojmandlarga moddiy yordam berildi. Aholiga xushqayfiyat ulashish maqsadida joylarda yuzga yaqin sumalak sayillari tashkil etilib, ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolar uchun iftorlik dastur-

xonlari yozildi.

– Umumxalq hashari kunlarida viloyatda to'rt yuzga yaqin ijtimoiy soha obyekti va turli muassasalar foydalanishga topshirildi, – deydi A.Lapasov. – Natijada 984 ta bo'sh ish o'rni yaratildi. Shu bilan birga, muborak Ramazon oyida aholini qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga yengillik yaratish maqsadida ta'mirtalab 3227 ta xonadon ro'yxati shakllantirilib, 499 ta kam ta'minlangan oila xonadonlarini ta'mirlash uchun qurilish materiallari olib berildi. Hozirda bu kabi ezu ishlar davom etmoqda.

– Ijtimoiy reestrda turaman, oilamiz sharoiti og'irligi sabab uyim juda achinarli holatga kelib qolgan edi, – deydi Qo'shrabot tumani Qo'shtamg'ali mahallasida yashovchi N.Husanova. – Muborak Ramazon oyida davlatimiz e'tibor qilib, uy-joy qurish uchun 400 million so'm mablag' ajratdi. Hozir zamon talablariga mos qilib, yangi uy qurib berishyapti, bundan juda mamnunman.

Fazliddin RO'ZIBOYEV.



O'zgarishlarni har kuni his qilyapmiz

Uzoq yillar xotin-qizlar bilan ishlab, ular bilan hamqadam, hamnafas bo'lganman. Turli davrlarda xotin-qizlarga e'tibor turli darajada edi.

Lekin bugungi jarayonlarni tahlil qilar ekanman, bu ishlarni bir paytning o'zida amalga oshirish mumkin ekan-ku, deya hayratim oshadi. Gap shundaki, keyingi yillarda oila, xotin-qizlar masalalari har tomonlama, mukammal bir tarzda hukumat darajasida tahlil qilinayapti va o'rganilgan masalalar tizimli tarzda hal etilmoqda. Joylardagi targ'ibot tadbirlarida, uch avlod uchrashtirilgan xotin-qizlarga bu haqda doim gapiraman.

Uzoq yillik kamtarona mehnatim Xalqaro xotin-qizlar kuni oldidan yuqori baholanganidan, to'g'risi, juda hayajon bilan o'tkazdim bu kunlarini. Poytaxtimizda o'tkazilgan anjuman-

da mamlakatimiz rahbari O'zbekiston xotin-qizlarini tabriklab, ayolning jamiyatdagi o'rni haqida juda muhim gaplarni aytdi. Prezidentimizning buviljonlar maktabi ishini yanada takomillashtirish, joylarda ularning uchrashuvlarini tashkil etish, yoshlar tarbiyasidagi rolini oshirish bilan bog'liq fikrlari e'tiborimni tortdi.

Mukofotni topshirar ekan, Prezidentimiz har birimizning mehnatlarimizni alohida aytib o'tdilar. Menga "Ko'ryapsizmi, Samarqand qanday o'zgariyapti? Qancha ishlar amalga oshirildi. Shu ishlarni boshlaymiz, deganda ko'pchilik ishonmangandi, mana, o'zgarishlarni xalqimiz ko'ryapti. Samarqandlik barcha xotin-qizlar-

Munosabat



ga salomimni va tabrigimni albatta, yetkazib qo'ying!", dedilar.

Haqiqatda, keyingi yillarda nafaqat Samarqand, balki butun mamlakatimizda juda katta o'zgarishlar bo'layotganini o'z hayotimizda, kundalik turmushimizda his qilyapmiz.

Bu so'zlarni aynan o'zim sevib mutolaa qiladigan, qadrdon "Zarafshon" gazetasi orqali yetkazishni lozim topdim.

Dilbar IMOMOVA, Samarqand shahar nuroniylar jamoatchilik kengashi faoli, II darajali "Sog'lom avlod uchun" ordeni sohibasi.



muhaddis bobomiz ma'naviy merosi va islom olamidagi shuhratiga mos emasdi. Davlatimiz rahbarining alohida e'tiborlari bilan dastlab bu yerda Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi va Hadis ilmi maktabi tashkil etildi. Muhaddislar sultonining ma'naviy merosini chuqur tadqiq etishga kirishildi. So'ngra majmua hududi kengaytirilgan holda, ziyoratchilarga har tomonlama qulayliklar yaratilishi hisobga olinib, yangidan bunyod etishga kirishildi. Keyingi 7-8 yilda bu yerda loyihadan qurilish, obodonlashtirish ishlarigacha Prezidentimizning doimiy e'tiborida bo'ldi. U kishi har gal Samarqandga kelganlarida, hatto pandemiya davrida ham, avvalo, majmuadagi ishlar bilan tanishib, qurilishning

Sanoat kooperatsiyasi va mahalliy lashtirish:

IQTISODIY BARQARORLIK SARI MUHIM QADAM

Vakillik instituti aʼzosi sifatida jamoatchilik bilan muloqotlar oʻtkazganim yoki boshqa davralarda boʻlganimda “oʻzimizda chiqarilayotgan mahsulotlarni qoʻllab-quvvatlayapmiz, deyiladi, bu ishlarning samarasi boʻlyaptimi?”, degan gap-soʻzlar boʻladi.

Ayni shu kabi munosabatlarga javob oʻlaroq, sanoat kooperatsiyasi va mahalliy lashtirish borasidagi ishlarning Samarqanddagi samaralari haqida soʻz yuritishga jazm etdim.

Aslida soʻnggi yillarda Oʻzbekiston iqtisodiyotida mahalliy ishlab chiqarishni kengaytirish, importga qaramlikni kamaytirish va sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biriga aylandi. Ayniqsa, 2026-yil 4-fevralda qabul qilingan Prezident farmoni bu borada yangi imkoniyatlarni ochib berdi. Mazkur hujjat mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qoʻllab-quvvatlash, yangi mahsulot turlarini oʻzlashtirish, tarmoqlar oʻrtasida kooperatsiya aloqalarini mustahkamlash hamda import oʻrnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni ragʻbatlantirishga qaratilgan muhim mexanizmlarni joriy etdi.

ILGARIGI TIZIMDAGI MUAMMOLAR

Avvalgi yillarda mahalliy lashtirish dasturi doirasida bir qator tashabbuslar amalga oshirilgan boʻlsa-da, ayrim tizimli muammolar korxonalar faoliyatida toʻsiq boʻlib kelgan. Jumladan, mahalliy lashtirish dasturida yetarli imtiyozlar mavjud emasligi sababli tadbirkorlar orasida qiziqish past boʻlgan. Shuningdek, tarmoqlar va hududlar oʻrtasida kooperatsiya aloqalarini muvofiqlashtiruvchi yagona tizimning yoʻqligi ham ishlab chiqarish zanjirlarini samarali tashkil etishga salbiy taʼsir koʻrsatgan.

Yana bir muhim muammo birja savdolarida narxning asosiy mezon sifatida qaralishi edi. Bu holat arzon import tovarlarning savdoda ustun kelishiga sabab boʻlib, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini pasaytirgan. Oqibatda koʻp hollarda mahalliy korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan yangi mahsulotlar faqat korxonaning ichki ehtiyojlari uchun ishlatilgan, boshqa korxonalar esa aynan shu mahsulotni xorijdan import qilishda davom etgan.

Buning yorqin misoli sifatida “Uramas kabel” masʼuliyati cheklangan jamiyatni keltirish mumkin. Korxona maishiy texnika ishlab chiqarishda qoʻllaniladigan boshqaruv kabellar toʻplamini mahalliy lashtirgan boʻlsa-da, ushbu mahsulotdan faqat oʻz ehtiyojlari uchun foydalangan. Viloyatdagi toʻrtta korxona aynan shu turdagi mahsulotni import qilib kelgan. Bu esa kooperatsiya tizimi yetarli darajada ishlamaganini koʻrsatadi.

KAFOLATLI XARID TIZIMI – YANGI BOSQICH

Yangi farmon bilan mahalliy lashtirish sohasidagi eng muhim yangiliklardan biri kafolatli xarid tizimining joriy etilishi boʻldi.

Endi investor bozorni tahlil qilib, qoʻrqmasdan investitsiya kiritib, mahalliy lashtiradigan mahsulotning xaridori kimligini oldindan biladi, chunki bu dasturda belgilandi.

Masalan, “Azureflow paper” qoʻshma korxonasi tomonidan 500 million dollarlik investitsiya kiritish orqali qogʻoz mahsulotlari ishlab chiqarishni tashkil etish rejalashtirilgan. Loyiha bir necha bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bosqichda gipsokarton uchun zarur boʻlgan qogʻoz mahsulotlari ishlab chiqariladi. Bugungi kunda ushbu mahsulotning 70 foizi import qilinadi. Keyingi bosqichlarda qadoqlash materiallari, oq qogʻoz va selluloza mahsulotlari ishlab chiqarish yoʻliga qoʻyiladi. Bu mahsulotlar boʻyicha ham import ulushi juda yuqori.

Agar mazkur korxona kafolatli xarid tizimiga kiritilsa, yiliga 750 ming tonna qogʻoz mahsulotlari ishlab chiqarishi mumkin. Bu esa 7,2 trillion soʻmlik mahsulot ishlab chiqarish va mamlakat boʻyicha 300 million dollar valyuta iqtisod qilish imkonini beradi.

Shuningdek, “Kattaqoʻrgʻon elektrotexnika zavodi” tomonidan 500 kilovoltgacha kuchlanishga ega boʻlgan 100 MVA quvvatli zamonaviy energiya tejankor transformatorlar ishlab chiqarish yoʻliga qoʻyilmoqda. Ilgari korxona asosan kichik quvvatli transformatorlar ishlab chiqargan boʻlsa, xorij tajribasini oʻrganish natijasida yuqori kuchlanishli transformatorlar ishlab chiqarishni ham yoʻliga qoʻydi.

Kafolatli xarid tizimi joriy etilgan taqdirda mazkur transformatorlar import analoglariga nisbatan 18 foizga arzon boʻladi. Bu esa logistika xarajatlarning kamayishi bilan izohlanadi. Natijada 6,5 million dollar valyuta iqtisod qilinadi, korxonaning yillik ishlab chiqarish hajmi 79 milliard soʻmga yetadi, 200 ta yangi ish oʻrni yaratiladi va budjetga 5,5 milliard soʻm qoʻshimcha tushum taʼminlanadi.

IMTIYOZLI MOLIALASHTIRISH IMKONIYATLARI

Sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish maqsadli jamgʻarmasi orqali tadbirkorlarga keng molliaviy imkoniyatlar yaratilmoqda. Jumladan, loyihalarni molliyalashtirish uchun xorijiy valyutada 6 foiz, milliy valyutada esa 12 foiz stavkada 10 million dollargacha kreditlar ajratiladi.

“Mirankul Construction Materials” masʼuliyati cheklangan jamiyati elektrishtirish ishlab chiqarishni tashkil etish uchun oʻtgan yili 12 foizli kredit olgan. Tabiiyki, yuqori foiz stavkasi mahsulot tannarxiga salbiy taʼsir koʻrsatgan. Yangi tizimda esa imtiyozli kreditlar hisobidan mahsulot tannarxini sezilarli darajada kamaytirish mumkin boʻladi.

Shuningdek, yangi turdagi yuqori texnologik mahsulotlar ishlab chiqarish uchun 2 million dollargacha imtiyozli kreditlar ajratiladi.

BUTLOVCHI QISMLAR IMPORTIGA BOJXONA IMTIYOZLARI

Yangi tizimga koʻra, ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan va respublikada ishlab chiqarilmaydigan xomashyo hamda butlovchi qismlar uch yil muddatga bojxona bojidan ozod qilinadi. Bu imtiyozlar mahsulot tannarxini pasaytirishga xizmat qiladi.

Dastlabki tahlillarga koʻra, joriy yilda dasturda ishtirok etuvchi korxonalar butlovchi qismlar boʻyicha 7 million dollar, xomashyo boʻyicha esa 8 million dollarlik imtiyozlarga ega boʻladi. Bu esa mahsulot tannarxini oʻrtacha 0,5 foizga kamaytiradi. Masalan, “Tecom Elevating System” masʼuliyati cheklangan jamiyati lift ishlab chiqarish uchun import qilinadigan butlovchi qismlar boʻyicha bir yilda oʻrtacha 2,5 milliard soʻm bojxona toʻlovlaridan ozod qilinadi. Bu esa mahsulot tannarxini 3 foizga arzonlashtiradi.

YANGI LOYIHALAR VA IQTISODIY SAMARA

Joriy yilda drayver sohalari asosida mahalliy lashtirish dasturiga 6,6 trillion soʻmlik 140 ta loyiha kiritildi. Bu loyihalar orqali 40 turdan ortiq yangi mahsulotlar ishlab chiqarish oʻzlashtiriladi. Jumladan, “AZIA METALL PROF” qoʻshma korxonasi tomonidan yiliga 100 ming tonna sovuq prokatli metall list ishlab chiqarish yoʻliga qoʻyiladi. Hozirgi kunda bu mahsulotning katta qismi import qilinadi. Loyiha amalga oshirilsa, 100 million dollar valyuta iqtisod qilinadi, 150 ta yangi ish oʻrni yaratiladi va budjetga 70 milliard soʻm tushum taʼminlanadi.

Shuningdek, metallurgiya sanoatida foydalaniladigan lak va boʻyoqlar ishlab chiqarish loyihasi ham amalga oshirilmoqda. Respublika boʻyicha mazkur mahsulotning asosiy qismi import qilinadi. Yangi korxona ishga tushsa, mahsulot import analoglariga nisbatan 15 foiz arzon boʻladi va sanoat mahsulotlari tannarxi 3 foizga kamayadi.

IMPORTGA QARAMLIK TAHLILI

Tahlillarga koʻra, 2025-yilda sanoat korxonalarini tomonidan 2,6 milliard dollarlik 3851 turdagi mahsulot import qilingan. Shundan 2445 turi tayyor mahsulotlar, 744 turi texnologik uskunalar, 645 turi butlovchi qismlar va 19 turi xomashyolardan iborat.

Mahalliy lashtirish imkoniyati yuqori boʻlgan 120 turdagi mahsulot aniqlangan boʻlib, ular boʻyicha 452,5 million dollarlik import amalga oshirilgan. Ushbu mahsulotlarni mahalliy lashtirish orqali import hajmini kamida 50–100 million dollarga qisqartirish mumkin.

Misol tariqasida, “UZBAT” aksiyadorlik jamiyati tomonidan har yili 10 million dollarlik sigaret qadoqlari xorijdan import qilingan. Sanksiyalar sabab yetkazib berishda uzilishlar yuzaga kelgan. Shu munosabat bilan viloyatdagi “Tong” masʼuliyati cheklangan jamiyati bilan kooperatsiya yoʻliga qoʻyilib, sigaret qadoqlarini mahalliy ishlab chiqarishga kelishildi. Bu orqali korxona ishlab chiqarish hajmi 120 milliard soʻmga oshadi, mahsulot tannarxi 2 foizga arzonlashadi va 10 million dollar valyuta iqtisod qilinadi.

Umuman, viloyatdagi sanoat korxonalarida mahsulot tannarxini kamaytirishga qaratilgan doimiy tadbirlar amalga oshirilmoqda. Joriy yilda 100 ta korxonada tannarxini oʻrtacha 8,5 foizga kamaytirish rejalashtirilgan.

Yuqoridagi chora-tadbirlar sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish, mahalliy ishlab chiqarishni kengaytirish va importga qaramlikni kamaytirishga xizmat qiladi. Yangilangan iqtisodiy mexanizmlar, imtiyozli molliyalashtirish va kooperatsiya aloqalarining mustahkamlanishi sanoat rivojida yangi bosqichni boshlab bermoqda.

Bu jarayonlar nafaqat iqtisodiy barqarorlikni taʼminlaydi, balki yangi ish oʻrinlari yaratish, eksport salohiyatini oshirish va milliy mahsulotlarning xalqaro bozorlarda raqobatbardoshligini kuchaytirishga ham xizmat qiladi.

Maryam NIYOZOVA,
Oliy Majlis Senati aʼzosi.

Bu koʻchatlar 2017-yilgacha xorijdan, valyuta hisobiga olib kelingan boʻlsa, mazkur laboratoriya tashkil etilgach, shu yerning oʻzida oʻstirilgan

Yurtimizda hozir ayni koʻchat ekish mavsumi. Bozorlar, aholi gavjum joylar va katta yoʻl yoqalarida koʻchat sotish nuqtalari tashkil etilgan. Qaysi turdagi mevali yoki manzarali daraxt niholi ekishni xohlasangiz, xarid qilishingiz mumkin. Shu bilan birga, hali keng ommalashmagan boʻlsa-da, laboratoriya sharoitida, in-vitro (toʻqima madaniyati) usulida koʻchatlar tayyorlanib, xalqimizga taklif etilmoqda. Ana shunday laboratoriyalardan biri Jomboy tumanida, “Sharq-Sanoat” konserni tarkibidagi “Ohalik oltin bogʻi” masʼuliyati cheklangan jamiyati qoshida faoliyat koʻrsatmoqda.

IN-vitro koʻchati:

asosiy mezon – sifat va samaradorlik

– In-vitro usulida mevali daraxt koʻchatlari tayyorlash – bu laboratoriya sharoitida steril muhitda oʻsimlik hujayra yoki toʻqimasidan yangi oʻsimlik yetishtirish texnologiyasi, – deydi in-vitro laboratoriyasi rahbari Sunnat Xoʻjaqulov.



– Bu usul koʻchatlarni anʼanaviy koʻpaytirishga nisbatan qator afzalliklarga ega. Avvalo, turli virus, bakteriya va zamburugʻlardan xoli sogʻlom koʻchat tayyorlanadi. Ildizi popukli boʻladi, yaʼni chuqur oʻsmaydi. Bu yer osti suvlari yer yuzasiga yaqin boʻlgan hududlar uchun juda qulay. Daraxt tez qurib qolmaydi, 20 yildan 50 yilgacha hosil beradi. Hozirgi iqlim oʻzgarishi sharoitida bu juda muhim. Ikkinchidan, koʻchatlarni tez va ommaviy koʻpaytirish imkoniyati mavjud. Qisqa vaqt ichida minglab bir xil koʻchatlar kichik laboratoriya hududida yetishtiriladi. Qalamcha yoki urugʻi orqali oʻstirish qiyin boʻlgan koʻchatlar laboratoriyada hujayrasidan koʻpaytiriladi. Bu esa noyob va qimmat navlarni tez koʻpaytirish, katta-katta bogʻlar yaratish imkonini beradi.

Uchinchidan, ona oʻsimlikning barcha genetik belgilari toʻliq saqlanadi, nav sofligi kafolatlanadi. Yana bir afzalligi – yil davomida koʻchat tayyorlash mumkin va bu jarayon uzluksiz davom etadi.

Mahalliy bogʻlarga nisbatan afzalligi – tez hosilga kiradi. Bir yil moʻl hosil berib, ikkinchi yil dam olmaydi. Mevaning hajmi, koʻrinishi bir xil boʻladi. Hatto daraxtlar ham bir xil oʻsadi. Yarim pakana daraxt boʻlgani uchun hosilni yigʻishtirib olish oson kechadi. Tomchilatib sugʻorish tizimi joriy etilsa, samaradorlik juda yuqori boʻladi.

Konsern tarkibidagi, yurtimizning yetti viloyatida tashkil etilgan 6 ming gektar intensiv bogʻlarda asosan in-vitro usulida tayyorlangan koʻchatlar ekilgan. Bu koʻchatlar 2017-yilgacha xorijdan, valyuta hisobiga olib kelingan boʻlsa, mazkur laboratoriya tashkil etilgach, shu yerning oʻzida oʻstirilgan.

– Bogʻlarimizga koʻchatlarni Yevropa davlatlaridan, har birini 3-5 dollargacha sotib olib kelib, ekanmiz, – deya soʻzida davom etadi Sunnat Xoʻjaqulov. – Juda katta mablagʻ sarflangan bunga. Keyin gretsiyalik hamkorlarimiz yordamida ushbu laboratoriyani tashkil etdik. Oʻzim va bir necha xodimlarimiz Gretsiyaga borib, laboratoriya ishini oʻrgandik, tajriba ortirib keldik. Avvaliga grek mutaxassislar bilan birga ishlagan boʻlsak, hozir hamma jarayonni 50 nafar xodim bilan birga oʻzimiz bajaryapmiz. Gretsiyalik hamkorlarimiz ham vaqti-vaqti bilan kelib, zarur tavsiya va maslahat berib ketishadi.

Laboratoriya ishi, hujayradan oʻsimlik yaratish oson emas, albatta. Bu juda yuqori aniqlik va ehtiyotkorlik, tozalik talab qiladigan jarayonlarni oʻz ichiga oladi. Avvalo, dastlabki bosqichda onalik navlar kichigan implantlarga hujayra olinadi. Oʻsimlik bir necha boʻlaklarga boʻlinib, maxsus ozuqali idishlarda koʻpaytiriladi. Ildiz chiqishi kutiladi, boʻyi oʻstiriladi. Ildizga ega boʻlgach, mikrooʻsimlik hosil boʻladi. Bularning hammasi vaqt, kerakli miqdorda yorugʻlik, harorat talab qiladi va bu jarayonlarning barchasi laboratoriyada kechadi. Masalan, oʻsimlikning uxlaydigan sikli bor, bu 1200-1800 soatgacha boʻladi. Keyin oʻstirish xonasiga oʻtkaziladi. Bu yerda 3000-5000 lyuksgacha yorugʻlik olishi kerak.

Umuman, koʻchat tayyorlashda ekiladigan yerning fizik, meliorativ holati, shoʻrlangan yoki shoʻrlanmagani, yer osti suvlarining yaqinligiga

alohida eʼtibor qaratiladi, shunga mos payvandtag tayyorlanadi. Masalan, bizda hozir mahalliy bodom yanvarning oxiri va fevralning boshlarida uygʻonib, gullayapti. Ammo keyin yuzaga keladigan sovuq harorat daraxtga taʼsir qilib, hosil kamayib ketishi yoki umuman boʻlmasligi mumkin. Biz ana shunday holatlarning oldini olish uchun xorijdan kechki bodom navini keltirib, oʻzimizga moslashtirib, koʻpaytirdik. Hozirda bogʻlari-mizda ekilgan bu bodom daraxtlari sovuq havo oqimi cheklamay paytda, martning oxiri, aprelni boshlarida gullaydi. Pishib yetilishi mahalliy bodom bilan bir xil, hosildorligi esa 5-10 foiz yuqori ham.

Ildiz chiqarib, belgilangan meʼyorgacha oʻsgan oʻsimlik laboratoriya yonidagi bir gektarlik issiqxonada tabiiy sharoitga moslashtiriladi. Buning uchun xorijdan keltirilgan ozuqali maxsus kassetalarga ekilib, oʻstiriladi. Bu jarayon 40-60 kun davom etadi va oʻsimlik-payvand tag 25-30 santimetr boʻlganidan keyin Oqdaryo tumanidagi maxsus koʻchatxonaga yetkazib beriladi va payvand qilinadi.

– Toʻrt gektarlik issiqxonamiz asosiy koʻchatxona hisoblanadi, – deydi bosh agronom Rustam Ibragimov. – Bu yerda laboratoriyadan keltirilgan oʻsimlik-payvandtaglar payvand qilinib, koʻchat holiga kelguniga qadar parvarishlanadi. Koʻchatxonaning ochiq maydondagidan farqi – yil boʻyi jarayon davom etadi. Odatda ochiq maydonlardagi koʻchatxonada payvandlash mavsumi bir yilda ikki marta oʻtkaziladi. Bizda esa yilning qaysi fasli boʻlishidan qatʼi nazar, laboratoriyadan keltirilgan oʻsimlik payvand qilinib, koʻchat oʻstiriladi va 50-60 santimetrga yetib, ekishga tayyor boʻlgach, ochiq maydonlarda oʻtqazish uchun chiqariladi. Hozir 1 million 863 ming tup koʻchat ekishga tayyor turibdi va may oyigacha toʻliq chiqariladi, buyurtmachilarga yetkazib beriladi. Masalan, Samarqand tumanidagi “Agromir” kompaniyasi 58 ming tup shaftoli koʻchati buyurtma qilgan. 35 navdagi bu koʻchatlar ekishga tayyor va hatto, shu yerning oʻzida gullab turibdi. Albatta, dastlabki yilda bu gullar toʻkib yuboriladi va koʻchat yerga moslashib, oʻzini oʻnglab oladi. Kelgusi yildan hosil bera boshlaydi. Bu intensiv koʻchat, yaʼni tez hosilga kiradi.

In-vitro usulida koʻchat tayyorlash jarayonlari bilan tanishib, shunga amin boʻldikki, har bir koʻchatning laboratoriyada hujayraligidan boshlab, payvand qilinib, ekishga tayyor boʻlguniga qadar 4 oydan 6 oygacha vaqt ketadi. Lekin bu jarayon mavsumiy emas, yil boʻyi davom etadi. Tayyor boʻlgan koʻchatni yer muzlamagan boʻlsa, har qanday sharoitda tomir otgan ozuqasi bilan birga ekish mumkin ekan.

Sunnat Xoʻjaqulovning qayd etishicha, hozir ham yurtimizdagi koʻp tadbirkorlar, bogʻdorchilik klasterlari egalari intensiv koʻchatlarni Yevropa va boshqa davlatlaridan 5-7 dollargacha sotib olmoqda.

Le-kin koʻp hollarda ularning sifatiga kafolat berilmaydi. Samarqanddagi in-vitro laboratoriyasida tayyorlangan koʻchatlar esa 3-3,5 dollarga tushmoqda va yurtimizning har bir hududi tuproq-iqlim sharoitiga mos koʻchatlar tayyorlab berilyapti.

– In-vitro koʻchatlarni bizdan olayotgan, oʻzining yeriga mos koʻchat buyurtma qilayotgan fermer va tadbirkorlar bor, ularning talabiga koʻra yiliga 4-4,5 million tup mevali daraxt, uzum koʻchatlari tayyorlab beryapmiz, – deydi S.Xoʻjaqulov. – Ayniqsa, vodik viloyatlaridagi bogʻbonlarning gilos, olcha, shaftoli koʻchatlarimizga qiziqishi katta boʻlyapti. Chunki ular bu koʻchatlarning har jihatdan samarali, eksportbop hosil berishini oʻz amaliyotlarida koʻrishdi. Shuning uchun aynan shu fermerlar yana kattaroq maydonlarda intensiv bogʻlar uchun koʻchat buyurtma qilishmoqda. Bugunga kelib, laboratoriyamizda 7 million tupdan ortiq payvandtag tayyorlash imkoniyati mavjud. Biz yurtimiz fermerlari, bogʻbonlarining buyurtmalari asosida ular istagan navdagi koʻchatlarni tayyorlab beramiz.

Gʻolib HASANOV,
Alisher ISROILOV (surat).



Ezgu amali bilan - ulug'langan inson

Ayrimlar aqlini tanigandan umrining oxirigacha doimo ilm izlash, kamol topish va egallagan faoliyat sohasiga fidoyilik bilan yondashish harakatida bo'ladi. Butun hayotini sud-huquq tizimiga bag'ishlagan Ilhom Qobilov ana shunday insonlardan edi.

Agar hayot bo'lganida bugun u 70 yoshni qarshilagan bo'lardi. Ammo uning ibratga to'la hayoti, ezgu-amallari yillar o'tsa hamki, o'zining qadr-qimmatini yo'qotmaydi.

I.Qobilov 1956-yilda Samarqand tumanida tug'ildi. Otasi Ergash aka o'qituvchi bo'lgani uchun ham o'g'lining bilim olishiga alohida e'tibor qaratdi. U Samarqand shahridagi 11-umumta'lim maktabini bitirgach, shahar ichki ishlar boshqarmasi qo'riqlash bo'linmasida operatorlik qila boshladi. Yigitlik burchini o'tab qaytgach, ilm olishga bo'lgan intilish, odamlar og'irini yengil qilishga ishtiyoq uni Samarqand davlat universitetining huquqshunoslik fakultetiga yetakladi.

Oliy ma'lumotli bo'lgach, Siyob tumani IIBda tergovchi, 1986-yilda Kattaqo'rg'on shahar sudi sudyasi, keyinchalik sud raisi bo'ldi. Faoliyati davomida Siyob tuman sudi sudyasi, Samarqand shahar sudi raisining o'rinbosari lavozimlarida mehnat qildi. Ustozlarining o'g'itlariga amal qilib, kam bo'lmadi. O'z ishining bilimdoni sifatida rahbariyat nazariy-gushdi, e'tiborini qozondi. Shu bois uni poytaxtga ishga



taklif qilishdi. Bir necha yillar Toshkent shahar sudi raisining o'rinbosari lavozimida faoliyatini davom ettirdi. Keyinroq esa Respublika Oliy sudida ariza va shikoyatlar bo'limi boshlig'i va Adliya vazirligida bo'lim boshlig'i lavozimida ishlaganda ham xalq manfaatini asosiy o'ringa qo'ydi.

I.Qobilov bu dunyoni erta tark etdi. Lekin qirq yetti yillik hayoti davomida ko'plab ezgu ishlar, odamlarga yaxshilik qilishga ulgurdi. Ortidan ko'p shogirdlar ergashtirdi.

– Otam kasbiga muhabbati tufayli sharaflil kasbning fidoyisiga aylandi, – deydi Ilhom

akaning o'g'li Islom Qobilov. – U tajribali huquqshunoslar tarbiyasini oldi, har bir yumushni ustozlari maslahati, o'g'itlariga amal qilib, ularning boy tajribalariga tayanib olib bordi. Uning katta hayot sahnasida o'z o'rnini topishida ustozlari – O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan huquqshunos A.Yunusov, Z.Aliyev, A.To'xtashev, X.Nazarov, A.Husenovlarning maslahatlari katta rol o'ynagan. U buni doim mo'xir bilan tilga olardi.

Aslida ustoz-shogirdlik an'analar o'zgacha tus olayotgan bugungi kunlarda I.Qobilovning ustozlariga mehri va sadoqati alohida tahsinga loyiq. Balki ayni shu sabab uning o'zi ham bir qancha yoshlarga ustozlik qilgan. Bugun u kishini ustoz deb bilib, sohaning sir-asrorlarini o'rgangan ko'plab shogirdlari huquq-tartibot organlarida xizmat qilib kelmoqda.

Hayotda ham ish, ham oila, qolaversa, yaqinlari bilan munosabatlarda oltin o'rtaqliqni topish hammaga ham nasib qilavermaydi. I.Qobilovga bu borada omad kulib boqqan edi. U oilada farzandlarining tayanchi va suyanchi, yaqinlari hamda shogirdlarining maslahatgo'yi edi.

Turmush o'rtog'i bilan uch nafar farzandni voyaga yetkazib, kamtarin inson qilib tarbiyalashdi. Ular qobil, ilmu hunarli insonlar bo'lib kamol topishdi.

Ilhom Qobilovning shaxsiy hayoti ibrat ekani, dili va tili doim ezgulikka esh bo'lganini, shu tufayli dillarda mangu yashayotganini anglash qiyin emas.

Dilmurod TO'XTAYEV.

Xotira uyg'onsa go'zaldir

O'ZBEKISTON KASABA UYUSHMALARI FEDERATSIYASINING SAMARQAND VILOYATI KENGASHI



Barcha hamyurtlarimizni yangilanish va yasharish bayrami –

NAVRO'ZI OLAM

bilan hamda musulmon ahli uchun muqaddas ayyom –

RAMAZON HAYITI

bilan tabriklaydi.



Xonadoningizga tinchlik-osoyishtalik, fayzu baraka tilaymiz!

"URGUT SAVDO KOMPLEKSI"

MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI JAMOASI

jannatmakon yurtimiz farzandlarini

NAVRO'Z BAYRAMI

va muborak

RAMAZON HAYITI

bilan tabriklaydi.



Qalbingizdan quvonch, yuzingizdan tabassum arimasin, azizlar!

Xizmatlar litsenziyalangan.

VIJDONNING BUGUNGI SO'ROG'I

Qonun bor, sud bor...

Ammo yer talashayotgan aka-ukalar vijdon amriga quloq solyaptimi?



REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasida marhum Kiyomov Shuxrat Kadirovichga (2025-yil 2-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Xolboyev Samadbek Xolboyevichga (2023-yil 11-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Mubin Ne'matjonovich notarial idorasida marhum Samadov Axtamga (2015-yil 13-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Mubin Ne'matjonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Soniy ko'chasi, 1-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Korobets Irina Gennadevnaga (2024-yil 4-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasida marhum Aminov Gaybulla Tursunboyevichga (2023-yil 12-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Zebuniso ko'chasi, 4-"A" uy.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Abdullayev Nodir Jamoliddinovich notarial idorasida marhum Bahronov Naimga (2025-yil 6-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Abdullayev Nodir Jamoliddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand tumani U.Samiyev ko'chasi, 1-uy.

BEKOR QILINADI

Sotuvchi Amonov Ergashjon Kosimjonovich va sotib oluvchi Yusupov Saidnu'mon Olimxon o'g'li o'rtasida Samarqand shahri "Ma'rifat" MFY, Almatso'fi ko'chasi, 147-uyda joylashgan "Yoshlar mehnat guzari" va "Yosh tadbirkorlar" kovorking markazi binosi uchun "Best realtor" MCHJ Samarqand mintaqaviy filiali vositachiligida 2023-yil 8-iyunda o'tkazilgan to'g'ridan-to'g'ri muzokaralar natijasida tuzilgan 092-sonli kelishuv bayonnomasi va ushbu bayonnoma asosida 2023-yil 8-iyunda tuzilgan oldi-sotdi shartnomasining sotib oluvchidagi nusxasi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Oqdaryo tumanidagi "KARKI METAL" xususiy korxonasining (STIR: 309106073) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

TEPAQUL

bahori – eng go‘zal bahor

Bu yil Nurobod tumani hududiga bahor o‘zgacha kayfiyat bag‘ishlab kirib keldi. Qish faslida yoqqan qor va yomg‘irlar qurib borayotgan buloqlar ko‘zini yana ochdi. Soylarda suvlar har yilgidan ko‘proq oqib, tabiatga ham, insonlarga ham yangi umid bag‘ishladi. Bu, ayniqsa, chorvachilik bilan shug‘ullanadigan Tepaqul mahallasi aholisi uchun katta imkoniyat yaratdi.

– Har bir xonadonda kamida yigirmata qo‘y boqiladi, – deydi mahalla raisi Do‘stmurod Saparov. – Shuning uchun ham aholi har yili qish faslida qor va yomg‘irlar mo‘l bo‘lishini, qir-adirlarda o‘t-o‘lanlar yaxshi o‘lishini tilaydi. O‘tgan yilgi qurg‘oqchilik odamlarimizning ko‘nglini xira qilgan edi. Shukrki, bu yil tabiat ancha mehribon. To‘g‘ri, kechagi sovuq gullagan ayrim mevali daraxtlarga ta‘sir qildi, ammo rizq-nasiba baribir bo‘ladi. Tepaqulni turizm qishlog‘iga aylantiryapmiz. Sayyohlar uchun dam olish maskanlari soni yildan-yilga ortib boryapti. Mahallaning tog‘li hududida yashovchi O‘ktam Qorayev bir gektar maydonda 500 tupdan ziyod mevali va manzarali daraxtlarni parvarish qilmoqda. – Yilqichilik bilan ham shug‘ullanaman, – deydi u. – Hozir 20 ga yaqin ot va toylar bor. Asosan ularni ko‘pkari musobaqalariga tayyorlayman. Chavandozlik otamdan meros. Qorabayir zotli «Shertoy» laqabli otim bilan ko‘plab musobaqalarda qatnashib kelyapman. Hozir shu otning naslini ko‘paytirish bilan bandman. Bu yil bahor juda barakali keldi. Faqat ba‘zan tog‘dan tushib keladigan bo‘rilar otlarimizga hujum qilib turadi. Mahallada ikki qishloq – Tepaqul va Eyrug‘ulda Navro‘z bayrami alohida ko‘tarinki ruh bilan nishonlanadi. – Navro‘z bayrami odatda Eyrug‘ul qishlog‘imiz yaylovda o‘tkaziladi, – deydi qishloq oqsoqollaridan biri To‘xtamurod Meliyev. – Kayvonilarimiz



milliy qadriyatlarimizni yosh avlodga yetkazish maqsadida bayram saylida xalq o‘yinlariga alohida e‘tibor qaratadi. Bolalar «Happaktosh», «Mak-mak», «Chillak», «Oq terakmi, ko‘k terak» kabi

xalq o‘yinlarini o‘ynaydi. Biz ularga bu mashqlar zamonaviy telefon o‘yinlaridan ko‘ra foydali ekanini tushuntiramiz. Tepaqulning bu yilgi bahori nafaqat tabiatning uyg‘onishi, balki insonlar qalbidagi umid va ishonchning ham yana bir bor yashnaganini namoyon etmoqda. Qir-adirlardagi yashillik, soylardagi shovullab oqqan suvlar, mehnatkash odamlarning tirishqoqligi va Navro‘z kabi milliy qadriyatlar – bularning barchasi qishloq hayotining betakror go‘zalligini namoyon etadi. Tabiat bilan uyg‘un, mehnat va an‘analar bilan boy bugungi hayot Tepaqulni har bahor yanada go‘zal va fayzli maskanga aylantirmoqda.

To‘liq SIDDIQOV, Baxtiyor MUSTANOV (surat).

Yaqinda onamni hududimizdagi poliklinikaga tibbiy ko‘rikka olib bordim. To‘g‘risi, juda ko‘p o‘zgarishlar bo‘libdi, barchasi yangilik. Masalan, ilgari ko‘rikdan o‘tgani borib, analiz topshirsak, tahlil natijalarini olish uchun boshqa kuni borardik. Shifokor ko‘rigiga yozilish uchun oldin karta olib, so‘ng navbatda turib, kompyuterda qaysi shifokorga kirmoqchi bo‘lsak, o‘sha shifokorga yozilardik, shifokor xonasiga navbat olib kirardik. Endi esa poliklinikalar elektron tizimga o‘tibdi. Xo‘sh, buning aholi uchun qanday qulayligi bor? Sug‘urta tizimining afzalliklari nimada? Bu haqda Samarqand shahridagi 7-oilaviy poliklinika bosh shifokori o‘rinbosari Nargiza Abduvoitova bilan suhbatlashdik.

Shifokor aytganini qilmasangiz,

poliklinikadan “quvilasiz”

Birlamchi bo‘g‘indagi yangiliklar



– Ilgari aholi o‘z yashash joyidagi poliklinikaga borishga majbur edi, endilikda barcha tanlov huquqiga ega, – deydi N.Abduvoitova. – Masalan, ba‘zi qizlar turmushga chiqqach avvalgi tibbiyot muassasasini tanlashi mumkin. Buning uchun avvalambor ro‘yxatga olinadi, keyin shifokorga biriktiriladi. Bitta shifokorga uch mingta bemor biriktiriladi. Sug‘urta tizimiga 2025-yil iyul oyidan sinov tariqasida o‘tganmiz. DMED tizimida ish olib bormoqdamiz. Bemor uyidan turib shifokor ko‘rigiga yozilsa bo‘ladi.

My.gov.uz platformasida bemor haqida barcha ma‘lumotlar kelib chiqadi. Bu tizimning qulayligi shundaki, oldin kasallik varaqasi, yo‘llanma qog‘ozda berilardi, hozir esa barchasi onlayn olinadi. Masalan, yo‘llanma to‘g‘ridan-to‘g‘ri shifoxonalarga yuboriladi. Bemor shifoxonaga borib shaxsini tasdiqlovchi hujjatini bersa bo‘ladi, ushbu jarayonning barchasi platformada ko‘rsatiladi, ya‘ni bemorga holat ko‘rinib turadi. Ushbu shifoxonaga qachon borishi kerakligi, sanasi platformada bildiriladi. Bemor shifoxonada davolanib chiqsa, davolangani haqidagi kasallik varaqasi ham onlayn beriladi. Agar bemor kasallik varaqasi ochitrsa, varaqa nusxasi xodimning ishxonasida bazasiga borib tushadi. Yana bir tarafi, qon analizlari topshirsa, oldin tahlil javobini olish uchun shifoxonaga kelar edi, hozir esa tahlil natijasini hozir, uyda turib ko‘rsa bo‘ladi. Homilador ayol ko‘rikdan o‘tsa, oldingidek tug‘ruqxonaga qog‘oz ko‘tarib yurmaydi, barcha tahlil natijalari onlayn yuboriladi.

– **Qo‘shnimizning qizi turmushga chiqib ketgandi, hozir qarasam, hali ham shu poliklinika xizmatlaridan foydalanyapti. Bu ham yangi imkoniyatlardan birimi?** – Ha, hozirda har bir fuqaro o‘z hududidagi poliklinika xizmatidan foydalanishi majburiy emas. Deylik, kimgadir uzoqroq bo‘lsa-da ammo o‘ziga ma‘qul poliklinikani tanlashi mumkin. Ayni kunlarda biz aholini ro‘yxatga olib bo‘lganmiz, lekin hozir ham xizmatlarimizdan foydalanishni istovchilardan murojaatlar kelib tushmoqda. Masalan, boshqa viloyatdan ko‘chib

kelgan insonlar ham bor. Shunaqa vaziyatlar bo‘ladi, aytaylik, siz Toshkent shahrida vaqtinchalik yashab turibsiz. My.gov.uzga oldin o‘zingizga yaqin bo‘lgan poliklinikani, o‘sha yerdan o‘zingizga shifokor tanlasangiz bo‘ladi. Toshkent shahridagi poliklinikaga vaqtincharo ro‘yxatga kiritilasiz.

– **Dori-darmon tarqatishda ham o‘zgarishlar bormi?**

– Ushbu jarayon – reimbursatsiya xizmati, ya‘ni aholiga bepul dori tarqatish tizimi sifatida ish boshladi. Xo‘p, reimbursements dasturi qanday amalga oshiriladi? Bu dasturga ko‘ra har bir bemorga poliklinikada elektron retsept asosida kod beriladi. Ushbu kod asosida bemor istalgan poliklinikada o‘sha dorilarni bepul olishi mumkin. Bugun 29 turdagi dori-darmonlar bepul ajratiladi. Dispanser nazoratida turgan bemorlar qanday davlat tomonidan har oy bir marta bepul dori beriladi. Surunkali kasallar alohida ro‘yxatga olinadi. Faqat bitta bemorga to‘rttagacha dori berishim mumkin. Masalan, bir bemorda ikki yo uchta kasali bo‘lsa, biz uchtagacha dori beramiz.

– **Hozir onamni ko‘rikdan o‘tkazayotganimizda men ham ko‘rikdan o‘tishim lozimligi aytiladi. Bu majburiymi?**

– Albatta. Aholini navbat bilan har yili bir marta to‘liq tibbiy tekshiruvdan o‘tkazamiz. Xususan, 40 yoshdan kattalar skriningi, 10 – 12 yoshdan oshgan bolalar tibbiy tekshiruv. Ko‘pincha aholi ishdan bo‘sh vaqtda, o‘zlariga qulay paytda kelib ko‘rikdan o‘tib ketmoqda. Sog‘lom inson bir yilda bir marta, dispanser nazoratidagi bemor bir yilda to‘rt marta tibbiy ko‘rikdan o‘tishi lozim. Afsuski, aholi tomonidan bu majburiyat bajarilmaydi, ya‘ni aksar hollarda ko‘rikka kelmaydi. Endilikda, yangi qoidaga asosan fuqaroning shartnomada belgilangan majburiyatlari ham mavjud. Ya‘ni, shifokor ko‘rsatmasini bajarmasa, davolanish uchun aytilgan ko‘rsatmalarni bajargach, qayta ko‘rikka kelmasa, shifokor ogohlantiradi. Bir necha marta shifokorning aytganini qilmasa, fuqaro bilan tuzilgan shartnoma bekor qilinadi.

Munisa SHAMSIYEVA suhbatlashdi.

Bugungi kunda telefon va ijtimoiy tarmoqlar hayotimizning ajralmas qismiga aylandi. Telefon va ijtimoiy tarmoqlardan ish, muloqot qilish, ko‘ngilochar faoliyat va o‘z-o‘zini rivojlantirish vositasi sifatida foydalanamiz.

SHIZOFRENIYEGA CHALINGANLARNING 47 FOIZI IJTIMOYIY TARMOQLARDA O‘TIRGAN

Telefon ishimizni yengillashtirishi bor gap. Ammo qulaylik bilan birga, bu vositaning salomatlikka salbiy ta‘siri ham tobora ko‘proq sezilmoqda. So‘nggi tadqiqotlar ruhiy buzilishlarga ega shaxslar smartfonlar kabi mobil qurilmalarga tobora ko‘proq ega bo‘layotganini va ulardan faol foydalanayotganini ko‘rsatmoqda. Xususan, tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, depressiya, psixotik buzilishlar yoki boshqa og‘ir ruhiy kasalliklar kabi turli xil ruhiy buzilishlar bilan yashayotgan shaxslar ijtimoiy tarmoqlardan umumiy aholiga xos bo‘lgan darajada foydalanadilar. Masalan, shizofreniya bilan og‘rigan statsionar va ambulator bemorlarning 47 foizi ijtimoiy tarmoqlardan foydalanganini, ulardan 79 foizi esa kamida haftasiga bir marta ushbu platformalarga kirishini bildirgan.

QISQA VIDEOLAR O‘RGANISH VA IDROK QILISH QOBILIYATINI PASAYTIRADI!

Inson ruhi mustaqil fikrsiz yashay olmaydi. Lekin ijtimoiy tarmoqlar inson fikrini o‘z holiga qo‘ymaydi. Kontent oqimi tezlashgan sari ondagi suhbatlar qisqaradi. Psixologiyada bu holat "diqqat intoksikatsiyasi" deb ataladi. Bir necha sekundlik videolar o‘rganish va idrok qilish qobiliyatini pasaytiradi. Jamiyatda kuzatilayotgan chala tushunib bahs qilish, mavzuni to‘liq o‘qimasdan fikr bildirish holatlari shuning klinik ko‘rinishi.

Pew Research markazi ax-



Diqqat intoksikatsiyasi

Yoki aholining ruhiy holati xavf ostida

borot iste‘moli bo‘yicha 2024-yildagi tadqiqotida foydalanuvchilarning 60 foizi mavzuni to‘liq o‘qimasdan munosabat bildirishini tan olgan. Inson qanday ovqat iste‘mol qilsa, uning jismi shunga aylanadi, qanday axborot iste‘mol qilsa, ruhi shunga aylanadi. Shuning uchun dunyo ekspertlari "axborot gigiyenasi" tushunchasini faol qo‘llayapti. Bu yopiq gap emas, oddiy amal: tekshirilgan manbani tanlash, emotsiya bilan emas, fakt bilan qaror qilish, har qanday postga ishonishdan oldin manbasini ko‘rish. Reuters Institute 2024-yilgi hisobotida feyk ma‘lumotlar tarmoqda real tezlikda tarqalishi, lekin to‘g‘ri ma‘lumot ularidan sekinroq yurishi isbotlangan.

CHEKLOVLAR ALLAQACHON BOSHLANGAN

Angliyalik shifokorlar mobil telefonning organizmga zarari ko‘pligi, turli kasalliklar kelib chiqishiga sabab bo‘lishini isbotlashgan. Londonda faoliyat ko‘rsatuvchi doktor Vini Kurana telefonning salbiy ta‘siri bilan bog‘liq miya saratoni bolalarni ham chetlab o‘tmayotgani, agar bunga e‘tiborsiz qaralsa, yaqin o‘n yilda saratondan halok bo‘ladigan bolalar soni oshib borishini bildirgan. Elektromagnit to‘lqinlar inson irsiyatidagi tartibning buzilishiga, hujayralar faoliyatining izdan chiqishiga, organizmdagi ma‘lum bir kasallik viruslarining faollashuviga sabab bo‘ladi, xavfli o‘sma kasalligini keltirib chiqaradi.

Bolalardagi bezovtalangan miya faoliyati ruhiy muammolarga, o‘qish qobiliyatining pasayishiga olib keladi. Bundan tashqari, mobil telefonlar bolalarning organizmiga, bo‘yining o‘sishiga, immunitetiga, diqqatini jamlashiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Qolaversa, telefonidagi o‘yinlarni uzluksiz o‘ynash oqibatida bolalarda umurtqa pog‘onasining qiyshayishi, ko‘z xastalıkları kuzatilyapti.

Shifokorlarning takidlashicha, o‘n yoshgacha bo‘lgan bolalarning bosh miya, ko‘z, quloq, asab va suyak tizimlari hali to‘la shakllanmagan bo‘ladi. Uyali telefon aqlli qobiliyatni pasaytirib, asabiylashishga olib keladi, o‘quvchini va uning atrofidadigilarni mashg‘ulotlardan chalg‘itadi. Hindistonda o‘n olti yoshgacha bo‘lgan bolalarning uyali telefonidan foydalanishi butunlay taqiqlangan. Yaponiya, Fransiya va Ispaniyada ham bolalarning mobil telefonidan foydalanishida chekllovlar o‘rnatilgan. Kattalar orasida esa alsgeymer kasalligi, asosan, xotira, fikrlash va kundalik faoliyatni yo‘qotish bilan kechadigan xastaliklar ko‘p uchrayapti, tarqalishi bo‘yicha alsgeymer kasalligi 60-80 foiz hollarda xotirani yo‘qotish shaklida uchrayapti. Telefon va ijtimoiy tarmoqlar uyquning buzilishi va diqqat pasayishiga olib kelishi hisobidan ham alsgeymer kasalligi bilvosita sabab bo‘lishi mumkin.

QANCHA UXLASANGIZ HAM UYQUGA TO‘YMAYSIZ

O‘smirlar orasida smartfonlar va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish ruhiy buzilishlar, o‘ziga zarar yetkazish xatti-harakatlari va suitsidal moyilliklarning ortishi bilan bog‘liqdir. Ha, telefon va ijtimoiy tarmoqlar vaqtini sezmasdan yo‘qotishga olib keladi. Bu holat uyqu rejimini buzilishi, charchoq va diqqatning pasayishiga sabab bo‘ladi. Ayniqsa, kechasi telefon bilan uzoq shug‘ullanish miyani dam olishdan mahrum qiladi. Harvard Medical School tadqiqotlariga ko‘ra, telefon ekranidan tarqaladigan yorug‘lik uyqu gormoni – melatoni ishlab chiqarilishini kamaytiradi. Buning natijasida uyqu sifatsiz bo‘ladi. Qancha uxlasangiz ham uyquga to‘ymaysiz.

Stress va bezovtalik kuchayishi – ijtimoiy tarmoqlarda boshqalarning "mukammal hayoti"ni ko‘rish ko‘pincha insonda o‘zidan norozilik hissinu uyg‘otadi. O‘zini boshqalar bilan solishtirish: tushkun kayfiyat, o‘ziga ishonchsizlik, doimiy bezovtalik kabi holatlarni kuchaytiradi. Tadqiqotlarga ko‘ra, bu kabi uzluksiz qo‘zg‘atuvchilar stress gormoni – kortizol darajasini oshiradi.

Diqqatni jamlash pasayib ketadi – telefon orqali turli xil ma‘lumotlar oqimi bizni ko‘p vazifalikka o‘rgatadi. Bu esa bir narsaga diqqatni jamlashni qiyinlashtiradi.

Qaramlik (bog‘lanib qolish) muammosi – telefonning yonidan uzoqlashtira olmaslik, xabar kelmasa bezovta bo‘lish bu raqamli qaramlik belgilaridir. Bunday holat asabiylık, jahldorlik va diqqatni jamlay olmaslikka olib keladi.

Jonli muloqotning kamayishi – virtual muloqot ko‘paygani sari real hayotdagi suhbatlar kamayib bormoqda. Bu esa yolg‘izlik hissi, ijtimoiy chekinish va ruhiy bo‘shliqqa sabab bo‘lishi mumkin. Ayniqsa, yoshlar va o‘smirlar bunga tez ta‘sirchan bo‘ladilar. Yuzma-yuz muloqotning yetishmasligi ijtimoiy aloqalarning sifati pasayishiga olib keladi va yolg‘izlik hissinu oshiradi.

Bolalar va o‘smirlar ruhiyati xavf ostida – telefon va ijtimoiy tarmoqlarga haddan tashqari berilish agressiya, o‘qishga qiziqishning pasayishi, uyqusizlik kabi muammolarni keltirib chiqaradi. O‘sib kelayotgan organizm uchun bu jiddiy xavf hisoblanadi.

Bolalar va ijtimoiy tarmoqlar foydali vosita, ammo meyoridan oshsa, salomatlikka jiddiy zarar yetkazadi. Muhimi, texnologiyadan foydalanishda muvozanatni saqlash va real hayot qadriyatlarini unutmaslikdir.

Gulzoda DO‘STOVA, Samarqand davlat tibbiyot universiteti o‘qituvchisi, Nigora IRGASHEVA, Zarmed universiteti o‘qituvchisi.

